



ADABIYOT INSON MA'NAVIY OLAMINING KO'ZGUSIDIR

Asqarova Mashhura Akmal qizi

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6673082>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

badiiy kitob, "Yosh kitobxon", ma'naviyat, mafkura, lirika, epos, axloqiy-ta'limiy, ruhiyat, dunyoqarash, manqurt.

ABSTRACT

Mazkur maqola "Adabiyot inson ma'naviy olamining ko'zgusidir" mavzusini yoritib, adabiyot millatning ruhiy barkamollikka erishishida, insonlarning dunyoqarashi keng bo'lishida eng asosiy omillardan biri ekanligini misollar orqali izohlaydi. Shu bilan birga, maqolada adabiyotning paydo bo'lishi rivojlanishi va turlari haqidagi nazariy bilimlar ham jamlangan.

Ma'lumki, biz yashayotgan asr texnologiya asri deya nom oldi. Shu bois hayotimizning qaysi jabhasiga qaramaylik, texnika, zamonaviy innovatsiyalarga duch kelamiz. Albatta, ularning yetarlicha qulayliklari mavjud bo'lib, insonlarga kundalik hayotda yaqin yordamchi bo'lmoqda. Lekin masalaning boshqa tarafini oladigan bo'lsak, bugungi kun kishilari, xususan, yosh avlod texnologiyalarga tubdan bog'lanib qolmoqdalar. Fikrimiz isboti sifati, barchamizning hayotimizda oddiy holatdek bo'lib qolgan vaziyatlarga nazar solsak. Maktab o'quvchilariga oddiy misol aytasangiz ular ongda yoki qo'l yordamida hisoblashdan ko'ra kalkulyator yordamidan foydalanishni afzal ko'radilar. Badiiy kitob o'qish orqali bilim va dunyoqarashni kengaytirish mumkin bo'lgan qimmatli vaqtlarini telefon yoki kompyuterda o'yin o'ynashga sarflash ularga maroqli tuyiladi. Ming afsuski, adabiyot insonga qanchalik sehrli bir kuch

berishi, ruhiy yuksalishiga tayanch bo'lishini bilmaydiganlar oramizda yetarli. Bizni quvontira oladigan boshqa bir jihat shuki, bugungi kunda kitob, badiiy adabiyotga yurtimizda targ'ibot ishlari ancha kuchaytirildi. Xususan, Yurtboshimiz tashabbuslari bilan Yoshlar ittifoqi tomonidan joriy etilgan kitob musobaqalari va rag'batlantirish mukofoti spark avtomashinasi bo'lgan "Yosh kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi bir necha loyihalar xalqimizni, ayniqsa, vatanimiz kelajagi bo'lmish yoshlarimizni kitob bilan yaqinlashish, adabiyot bilan do'stlashishga yaxshi undov bo'lib xizmat qilmoqda. Shu o'rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlariga e'tibor qaratsak. "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar



merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz".[1]Yurtboshimiz vadalariga muvofiq ko'plab kutubxonalar, mahallalarda kitobxonlik markazlari tashkil qilindi. Endi navbat esa yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va bildirilgan ishonchni oqlaydigan yoshlarni tarbiyalashdir. Bunda esa yoshlarni bolalik chog'idan kitobga, adabiyotga muhabbatli qilib o'stirish zarur.

MATERIAL VA METODLAR

Bolaligimizdan biz bilan yaqin do'st bo'lgan, hozirgacha ham o'z mavqeini yo'qotmagan adabiy janrlardan asosiylari ertaklar, topishmoqlar, hikoyalar, she'rlardir. Ularning barchasi inson kamolotida ulkan rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalar uchun atalgan adabiy asarlar, xususan, ertaklar bizda asosiy axloqiy tamoyillar va me'yorlarni o'z ichiga oladi. Ertaklar, topishmoqlar, masallar va hazillar bizni do'stlikni qadrlashga, yaxshilik qilishga, zaiflarni xafa qilmaslikka, ota-onamizni hurmat qilishga va xatti-harakatlarimiz haqida o'ylashga o'rgatadi. Shuning uchun ham adabiyot va kitoblarning, umuman, insoniyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat shaxsni shakllantirishda ishtirok etadilar, balki har birimizning axloqiy tarbiyamizning asosiy qismini tashkil qiladi. Tabiiyki, adabiyot shunchalik buyuk kuch ekan u qanday va qachon paydo bo'gan degan savol tug'iladi. Fikrimizni adabiyot tarixi va bugungi kuniga oid nazariy ma'lumotlar bilan davom ettirsak, adabiyot avval og'zaki bo'lgan, yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozma shaklga o'tgan. Og'zaki adabiy asarlar og'izdan og'izga o'tib, asrlar davomida saqlanib kelgan.

Bularga afsona va dostonlarni misol qilishimiz mumkin.

Bilamizki, adabiyot so'z orqali insonning his-tuyg'ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san'atning eng ommaviy turi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning yetakchi 3 turi — epos, lirika, drama mavjud. Epos voqelikning o'zini in'ikos etadi, lirikada esa insonning voqelikdan olgan taassurotlari qo'shib tasvirlanadi. Sharq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lgan[2]. Shu boisdan Sharq badiiy adabiyotida, ayniqsa, lirika keng rivojlangan. Masalan, lirika va epos xususiyatlari birlashib liro-epik turni tashkil etadi. Liro-epik turga poema, ballada, doston, masal kabilar kiradi. Epos, odatda, 3 ga bo'linadi: kichik epik shakl (latifa, ocherk, ertak, hikoya), o'rta epik shakl (qissa) va katta epik shakl (roman). Lirika mazmun va shaklga ko'ra, g'azal, muhammas, marsiya, ruboiy, qasida, sonet, qo'shiq va boshqalarga bo'linadi. Dramatik adabiyotning ham mazmunan 3 xili bor: drama, komediya va tragediya (fojia).

Adabiyot san'atning boshqa turlari kabi mafkuraviy hodisadir. Adabiyotda voqelikni aks ettirish tamoyiliga ko'ra, adibning ijodiy usuli paydo bo'ladi. Voqelikdagi tipik hodisalar umumlashtirilgan holda haqqoniy aks ettirilsa, realistik adabiyot deyiladi. Yozuvchi ayni voqelikni emas, balki u haqidagi o'z orzu-umidlarini ham ifoda etsa, romantik adabiyot bo'ladi. Adabiyotning badiiylik mezoni uning g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal bo'lishini taqozo qiladi. Bu hol asar mavzuining dolzarbligi, ifoda etadigan g'oyasining to'g'riligi, tasvir haqiqatining chuqurligi, badiiy shakl tarkibiy qismlarining mukammalligidan yuzaga keladi. Har bir adabiyot milliydir, shunga



ko'ra har bir xalqning tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyligi mazmunini tashkil etadi va o'ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig'ilgan tajriba va an'ananing ham ahamiyati katta. Xalq hayotidagi yangi davr esa adabiyotni yangi, yuqoriroq bosqichga ko'taradi, uning mazmuni va shaklini ham yangilaydi, ham boyitadi. Yangilangan adabiyot o'z navbatida yangi jamiyatning mustahkamlanishida qudratli qurol vazifasini o'taydi. Hozirgi zamon o'zbek adabiyotda adabiyotning tasvir ob'ekti umuman ijtimoiy voqelik bo'lsa, bosh tasvir ob'ekti esa insondir. Adabiyotda insonning ijtimoiy mohiyati umumlashtirilgan holda ifoda etiladi. Shuning uchun ham adabiyotning maqsadi ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy kuchning mohiyatini to'la ifodalash va ayni vaqtda keskin individuallashtirgan badiiy obraz yaratmoqdir. Yaratilgan bunday obrazlarning eng mukammali „tip“ deb ataladi.[2] Navoiy asarlaridagi Farhod, Shirin, Majnun, Layli, Iskandar obrazlari; Shekspir asarlaridagi Otello va Hamlet; Abdulla Qodiriy asarlaridagi Otabek va Kumush tip darajasiga ko'tarilgan obrazlardir.

Adabiyot voqelikni aks ettirar ekan, unga go'zallik qoidalari nuqtai nazaridan yondashadi. Binobarin, asar predmetini tanlash ham g'oyat muhim ijodiy nuqtadir. Chunonchi, asarning ta'sirli chiqishi, boshqa ko'p mezonlar qatori, shunga asos qilib olingan fikrning emotsionalligi, ko'tarinkiligiga ham bog'liq bo'ladi. Milliy mustaqillikka erishgan o'zbek xalqi hayotning barcha jabhalarida o'zligini namoyon etmoqda. Jumladan, istiqlol davri adabiyoti tub sifat o'zgarishlariga erishmoqda. Bu davrda ijodkor olam va

odam haqida avvalgidan farqli fikrlash mumkinligini chuqur anglab, faoliyat ko'rsatmoqda. Natijada olamni, odamni, ularning tuyg'ularini turlicha ifodalaydigan badiiy asarlar yaratish boshlandi. Bu davr adabiyotida tasvirlanayotgan inson o'zining bashariyat, Vatan, el-yurt oldidagi mas'uliyatini chuqur his etgan holda namoyon bo'lmoqda. Istiqlol adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham ilgarigi qoliplarga sig'maydigan, tabiiy ravishda rivojlanayotgan yangi estetik hodisadir. U odamlarga yo'l ko'rsatishni zimmasiga olmaydi, o'quvchiga aql o'rgatmaydi, hayotiy muallimlikni da'vo qilmaydi, balki tasvirning nozikligi, ifodalarning favquloddaligi, obrazlarning kutilmaganligi bilan o'quvchida munosabat uyg'otadi.

NATIJA VA TAHLIL

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda shuni alohida ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan ro'l o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.[3] Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbayi hisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga,



ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongining o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi. Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti, uning kishilar dunyosiga, ularni qurshab turgan tashqi borliq bilan aloqalariga va o'zaro munosabatlariga tobora chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi insondir. Insonning badiiy asarlarda markaziy o'rinni egallashi orqali asar o'quvchining ta'sir doirasini kengaytiradi, voqelikni ko'z o'ngida jonlantirishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, adabiyot inson

hayotida juda muhimdir: u bizning dunyoqarashimizga ta'sir qiladi. Bizning ichki dunyoyimizni, nutqimizni boyitadi. Shuning uchun biz iloji boricha ko'proq o'qishimiz, kitobni sevishimiz va hurmat qilishimiz kerak, chunki kitobsiz hayot rangsiz va zerikarli davom etadi. Adabiyotga, kitobga bo'lgan e'tiborni yo'qotgan jamiyat bora- bora tanazzulga yuz tutadi. Jamiyat a'zolari esa o'z fikri, dunyoqarashiga ega bo'lmagan manqurt kimsalarga aylanadi. Shu sababdan yurtboshimiz kitobxonlikka davlat miqyosidagi muhim jihat sifatida e'tibor qaratmoqdalar. Chunki yosh avlodni dunyoqarashini kitob, badiiy asarlar orqali boyitmasak, mafkuraviy bo'shliq vujudga keladi. Bu esa yot g'oyalar, zararli fikrlarni ta'sir etishiga imkon tug'diradi. Shunday ekan yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda maqsad belgilash va unga erishish yo'lida bor kuchimizni sarf etishimiz joiz. Zotan, biz yuksak saviya egasi bo'lgan buyuk ajdodlar vorisimiz va bunga munosib bo'lmog'imiz darkor.

References:

1. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Ijod" jamoat fondi. "Adabiyot – xalqning yuragi". Toshkent "Adabiyot" nashriyoti 2021
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ozoda Abdullaeva "BADIY ASARLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI". «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601
4. <https://saviya.uz/hayot/suhbat/adabiyot-tarbiya-vositasi/>.